

**SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA  
STEVIYA DORIVOR O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNIKASINI  
ISHLAB CHIQISH**

*Ismoilov Jaloliddin Kamoliddin o‘g‘li*

*Namangan Davlat Universiteti*

*Tabiiy Fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi*

[\*ismoilovjaloliddin5@gmail.com\*](mailto:ismoilovjaloliddin5@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada Sirdaryo viloyati hududidagi sho'rlangan tuproqlar va unda Eksperimental biologiya ilmiy tadqiqot laboratoriyasi biotexnologiya bo'limida olib borilayotgan izlanishlar va dorivor steviya o'simligining yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot natijalari keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** dorivor o'simliklar, dorivor steviya, steviosid, tarqalishi, o'rganish, belgi, antitumor, Antiallergin, xususiyat, yetishtirish agrotexnologiyasi.

**Abstract.** The article presents the results of research on saline soils in the territory of Syrdarya region and the research conducted in the biotechnology department of the Scientific Research Laboratory of Experimental Biology and the development of agrotechnology for the cultivation of the medicinal stevia plant.

**Key words:** medicinal plants, medicinal stevia, stevioside, spread, study, symptom, antitumor, Antiallergin, property, agrotechnology of cultivation.

**Абстрактный.** В статье представлены результаты исследований на засоленных почвах на территории Сырдарьинской области и исследований, проведенных в отделе биотехнологии Научно-исследовательской лаборатории экспериментальной биологии и разработки агротехнологии выращивания лекарственного растения стевия.

**Ключевые слова:** лекарственные растения, стевия лекарственная, стевиозид, распространение, исследование, симптом, противоопухолевый, антиаллерген, свойство, агротехника возделывания.

O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etish va insonning barqaror salomatligini ta'minlash uchun mahalliy sharoitda iqlimlashtirilgan dorivor, shifobaxsh hamda iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan o'simliklardan oqilona foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida sungi yillarda O'zbekistonda bir nechta qaror va farmonlar qabul qilindi

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 251-sonli qarori

hamda “Dorivor o’simliklar xom-ashyo bazasidansamarali foydalanish qayta ishlashni qo’llab quvvatlash orqali qo’shmcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni bunga yaqqol misol bo’la oladi.[1]

Ushbu qarorga muvofiq dorivor o’simliklarni madaniy holda yetishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o’simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etishni qo’llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o’simliklarni keng qo’llash haqida bayon etilgan.[2]

Dorivor o’simlikarni yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari boshlab yuborildi.

Xozirgi vaqtda O’zbekiston Respublikasida 112 tur dorivor o’simliklar rasmiy tabobatda foydalanishga ruxsat berilgan bo’lib, ushbu dorivor o’simliklarning 80%ni tabiiy holda o’suvchi o’simliklar tashkil etadi.[3] Tabiiy holda o’suvchi dorivor o’simliklarning ham xom ashyo zaxirasi chegaralangan bo’lib, ularni muhofaza qilish, bioeklogik xususiyatlarini o’rganish, xom ashyo zaxirasidan to’g’ri foydalanish va ko’paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun O’zbekistonda farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini dorivor o’simliklar xom ashyosi bilan ta’minlash, mahalliy floraniyangi introdutsent o’simlik turlari bilan boyitish va ularni yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish muhim masalalardan biridir.[4]

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan Qishloq xo’jaligi vazirligi bilan birgalikda sertifikatlangan dorivor o’simliklarni urug’chiligi va ko’chatchiligini yo’lga qo’yish bo’yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion ilmiy-texnik loyihalar bo’yicha grant tanlovlarini yosh tadqiqotchilar va tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratildi.

Geografik tarqalishiga ko’ra hozirgi vaqtda 15 dan ortiq davlatlar (AQSh, Angliya, Frantsiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Kanada, Rossiya, Ukraina va boshqalar) steviyani ko’paytirib, qandolatchilik, shirin ichimliklar, parhez taomlar, konservalar va dori-darmon tayyorlashda keng miqyosda foydalanib kelmoqdalar. Steviya dorivor o’simlikning vatani Paragvay davlati hisoblanadi.[5]

Mazkur o’simlik O’zbekistonda dastlab, 1996 yilda O’zbekiston Milliy Universiteti va Toshkent davlat agrar universiteti olimlari tomonidan mahalliyashtirilgan. Bugungi kunda Respublikamizda steviya o’simligi plantatsiyalari kengaymoqda. Misol uchun, Surxondaryo viloyati, Sho’rchi tumanida “Olloyoroxun” steviya eksperimental fermer xo’jaligi 7 gektar maydonda ekilgan. 2019 yil Toshkent viloyati O’rta Chirchiq tumanida «Healing Herbs and Organics» tashkiloti tomonidan 64 gektar ushbu o’simlik plantatsiyalarini tashkil etib, parvarish qilib kelmoqda.[6]

Hozirgi kunda O'zbekistonda sho'rlangan hududlar ko'pligi sababli, biz Sirdaryo viloyati sho'rlangan yerlarga sinov asosida ekishni yo'lga qo'ydik.

Agrotexnikasi to'xtalib o'tadigan bo'lsam xususan, uning damlamasidan olinadigan steviozid moddasi shakardan 150 barobar shirin. Steviozidni qayta ishlash natijasida olinadigan rebadiozid moddasi 300 barobargacha totli. Shuningdek, u o'ta shifobaxsh hamdir.

Steviya issiqlikni, namlikni, past haroratga chidamlilikni, botqoqlanishdan qo'rqishni, doimiy suvga chidamliligini va qurg'oqchilikka chidamliligini yaxshi ko'radi, shuningdek, yorug'likka juda sezgir, shuning uchun maksimal yorug'lik vaqti o'n ikki soat.

Asosiy o'g'it asosan organik o'g'it. Boshqa kimyoviy makro va mikro preparatlardan foydalanmaydi.

Ishning borishi

Steviya o'simligi Sirdaryo viloyatiga 2022-yil 18-may kuni ekildi. Uning o'sish tezligi meyorda ketmoqda. Steviya g'unchaga kirgan paytda o'rib olinadi. Chunki steivosid shirin ta'mga ega modda guliga yoki ildiziga o'tib ketishi mumkin. G'unchaga kirguncha davr 45-50 kunni tashkil qiladi. Uning bo'yi o'rtacha 40-70 sm bo'ladi. Hozirgi kunga qadar natijalar bilan tanishadigan bo'lsak, quydagi jadvalga e'tibor qarating.

**Jadval 1**

<b>Kun 3/1</b>	<b>Umumiy uzunlik (sm)</b>	<b>Barg uzunligi (sm)</b>	<b>Poyalar soni</b>	<b>O'lish jarayoni</b>
<b>1</b>	<b>3-5</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	-
<b>3</b>	<b>7-9</b>	<b>1-2</b>	<b>2</b>	-
<b>9</b>	<b>10-15</b>	<b>2-3</b>	<b>3</b>	-
<b>12</b>	<b>15-20</b>	<b>2-3</b>	<b>3-4</b>	-
<b>15</b>	<b>18-24</b>	<b>2-3</b>	<b>4-5</b>	-

Bu o'simlik olib kelinganiga 15-20 kun bo'lgan. Bugungi kungacha qilingan natijalar bilan yuqoridagi jadval va rasmlar bunga asosiy dalil hisoblanadi.

O'rtacha sho'rlangan yerga ekilgan bu o'simlik. Hozirgi paytda bu o'simlik 15-20 sm yetganligi sababli, onalik o'simligidan qalamchalar olinayapti. Buning uchun uni har bir shohida pastki ikki bo'g'imi qoldirilib, o'tkir lezviya yoki qaychi bilan kesib olinadi va o'sish nuqtasi yuqoriga qaratilgan holda chelakdagi sovuq suvga solinadi. Ekilgan qalamchalardan tezroq tomirchalar hosil bo'lishi uchun, ular maxsus o'stiruvchi moddalar (IUK-indoliluksus kislota) bilan ishlanadi va yashikdagi qumga 2-3 sm chuqurlikda 5x3 yoki 4x2 sm qilib ekiladi. Bu jarayon issiqxona sharoitida tashkil

etiladi. U ekilgandan so'ng 18-20 kun ichida ildiz chiqaradi. So'ngra dalaga ushbu ko'chatlar ekiladi. O'sish suratlari shu tarzda davom etadi.

Bu o'simlikni yetishtirishda qayta ishlash natijasida 130 ga yaqin mahsulot olish mumkin. Misol uchun qadolatchilikda, farmaseftika, Textil mahsulotlarni bo'yashda, qishloq xo'jaligida, ipakchilik uchun qurtlarni boqishda yuqori natijalarga erishilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish keraki steviya osimligini bioekologik xususiyatlardan kelib chiqib, faqatgina respublikaning Janubiy hududlari (Surxondaryo, Qashqadaryo) hamda Samarqand va Toshkent viloyatlarida emas balki Sirdaryo viloyatida ham madaniy plantatsiyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. [https://uza.uz/uz/posts/dorivor-osimliklarni-madaniy-holda-etishtirish-va-qayta-ishlash-hamda-davolashda-ulardan-keng-foydalanishni-tashkil-etish-chora-tadbirlari-togrisida\\_374137](https://uza.uz/uz/posts/dorivor-osimliklarni-madaniy-holda-etishtirish-va-qayta-ishlash-hamda-davolashda-ulardan-keng-foydalanishni-tashkil-etish-chora-tadbirlari-togrisida_374137)
2. [www.chamber.uz](http://www.chamber.uz) Savdo-sanoat palatasi Toshkent-2020
3. <https://hujayra.uz/ozbekistonda-mojizaviy-steviya-osimligini-ostirish-istiqbollari/>
4. <file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/ТІК-251.pdf>
5. [file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/ПФ-139%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/ПФ-139%20(1).pdf)
6. [Q'.Ahmedov], [A.Ergashev], A.Abzalov, M.Yulchiyeva S.Azimboyev Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar: 0 'quv qo'llanma / Mualliflar jamoasi; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. 172 b.